XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 10 - avgust VI-71-68-10-135-K/23 Bekobod tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Bekobod tumanidagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 13-iyundagi yig‘ilish bayoni va bayonnoma bilan tasdiqlangan ekspert xulosasi,shuningdek “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent viloyati komissiyasi”ning 2023-yil 11-iyul, tuman komissiyasining 2023-yil 13-iyuldagi 3-sonli yig‘ilish bayonnomalarini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-,24-moddalariga asosan xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisining o‘rinbosari S.Suvanovaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 13-iyundagi yig‘ilish bayoni va bayonnoma bilan tasdiqlangan ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan 7 ta geografik obyekt (qabriston) nomi **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3.Bekobod tuman obodonlashtirish bo‘limi (S.Nurmatov) qaror bilan nomlangan 7 ta qabriston nomini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsin.

4.Tuman obodonlashtirish bo‘limi (S.Nurmatov)ga 1 oy muddatda ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosidagi qabristonlarga nomlari yozilgan peshlavhalarni bosqichma bosqich o‘rnatish, almashtirish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (S.Suvanova)ga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5.Mazkur qaror “Bekobod ovozi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6.Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisining o‘rinbosari S.Suvanova geografik obyektlarga nom berilganligi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlarni Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestriga kiritish uchun o‘n kunlik muddatda Kadastr agentligiga taqdim etsin.

7.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Sanoat,transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiya”si (N.Duturayev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Q.Bobojonov**

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2023-yil 10-avgustdagi
VI-71-68-10-135-K/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Bekobod tumanidagi geografik obyektlarni nomlash bo‘yicha RO’YXAT

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	qabriston	Bo‘ston mahallasi	Nomsiz (zafar)	Dalvarzintepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	qabriston	Birdamlik mahallasi	nomsiz	Matchoh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	qabriston	Hamza mahallasi	nomsiz	Buzrukbobo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	qabriston	O‘zbekiston mahallasi	nomsiz	Rus-Xristian	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	qabriston	Parchayuz mahallasi	nomsiz	Yuqori Parchayuz	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	qabriston	Paxtakor mahallasi	nomsiz	Pistalimozor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	qabriston	Yoshlik-2 mahallasi	nomsiz	Xilvatgoh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq